

Bu model Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida (*ayniqsa Germaniyada*) KfW va Bürgschaftsbanken tizimi aynan shunday zontikli kafolat modeli asosida ishlaydi.

Tizimning amaliyotga joriy etilishi natijasida kredit portfeli diversifikatsiyalanadi, yangi ish o‘rinlari yaratiladi va aholining o‘zini o‘zi band qilish darajasi oshadi. Shu bilan birga, “zontikli kafillik” mexanizmi oilaviy tadbirkorlikni institutsional jihatdan qo‘llab-quvvatlash orqali barqaror iqtisodiy o‘sishni ta‘minlashga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “Raqamli O‘zbekiston — 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. 2020 yil 5 oktabr, PF-6079-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. “Har bir oila – tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risida. 2018 yil 7 iyun, PQ-3777-son. Hamidov, B. “O‘zbekistonda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning moliyaviy mexanizmlari.” – Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali, 2023.

3. Rajabov, Sh. “Tadbirkorlikka kafillik tizimlari: xorijiy tajriba va O‘zbekiston amaliyoti.” – Moliya va Bank ishi, 2022.

4. Usmanova, D. “Zontikli kafillik va mikro kreditlar: oilaviy biznes uchun yangi imkoniyatlar.” – Iqtisodiy tadqiqotlar, 2024.

5. Abdullayev, X. “O‘zbekistonda oilaviy tadbirkorlik uchun moliyaviy kafillik mexanizmlari.” – “Iqtisod va moliya” jurnali, 2023.

TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI TARKIBI VA MUAMMOLI KREDITLARNING BANK BARQARORLIGIGA TA’SIRI

Umarova Durdona Abdusalomovna

Bank-moliya akademiyasi “Bank ishi” mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada 2020–2025-yillar davomida O‘zbekiston tijorat banklari aktivlari tarkibi, ularning o‘shish dinamikasi va samaradorligi empirik tahlil qilingan bo‘lib, tadqiqotda bank aktivlarining tarkibi, kredit va investitsiya portfellarining o‘zgarishi hamda moliyaviy barqarorlikka ta‘siri baholangan. Shuningdek, davlat va xususiy banklar faoliyati qiyosiy tahlil asosida o‘rganilib, muammoli kreditlar darajasi va risklarni boshqarish mexanizmlarining samaradorligi aniqlangan.


Kalit so‘zlar: tijorat banklari, bank aktivlari tarkibi, aktivlar samaradorligi, moliyaviy barqarorlik, kredit portfeli, investitsiya portfeli, muammoli kreditlar (NPL), risklarni boshqarish, bank tizimi islohotlari, davlat banklari, xususiy banklar.

Bugungi kunda jahon moliya bozorlarida kechayotgan transformatsiya jarayonlari, bank tizimini erkinlashtirish va raqamli bank tizimini jadal

rivojlanishi tijorat banklari aktivlarini samarali boshqarish masalasini dolzarb qilib qo'ymoqda. O'zbekistonda so'nggi yillarda bank islohotlari chuqurlashib, aktivlar tarkibi, kredit portfeli hajmi va sifati sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Shu bilan birga, muammoli kreditlar ulushi va ularning dinamikasi bank tizimi barqarorligi uchun asosiy risk omillaridan biri bo'lib qolmoqda. Mazkur maqolada tijorat banklari aktivlari tarkibi, kredit portfeli tuzilishi va NPL ko'rsatkichlari 2020–2025-yillar statistik ma'lumotlari asosida tahlil qilinib, aktivlar samaradorligi va risklarni boshqarish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqilgan.

2020–2024-yillarda O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlari tarkibining o'zgarish dinamikasi aks ettirilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, sof kredit qo'yilmalari hajmi yildan-yilga barqaror oshib borib, bank aktivlarining asosiy qismini shakllantirgan. Bu holat iqtisodiyotda real sektorni moliyalashtirishga yo'naltirilgan kredit siyosati ustuvorligini ko'rsatadi. Investitsiyalar va qimmatli qog'ozlar ulushining nisbatan past bo'lishi banklarning riskdan qochish strategiyasi hamda kapital bozorining yetarlicha chuqur rivojlanmaganligi bilan izohlanadi.

2020–2025-yillarda O'zbekiston tijorat banklari aktivlari tarkibida davlat ulushi mavjud banklar va boshqa banklar o'rtasidagi nisbat bosqichma-bosqich o'zgarmoqda. Davlat ulushi mavjud banklar aktivlari 244,5 trln so'mdan 404,5 trln so'mga yetib, mutlaq ko'rinishda sezilarli o'smoqda, biroq ularning ulushi 88,3 foizdan 67 foizgacha qisqargan. Aksincha, boshqa (asosan xususiy va xorijiy kapital ishtirokidagi) banklar aktivlari 32,5 trln so'mdan 199,5 trln so'mga ko'payib, sektorning eng tez rivojlanayotgan segmentiga aylangan.




1-rasm. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining aktivlari, trln so'mda (2020-2025)⁵

Bu tendensiya bank tizimini transformatsiya qilish, davlat banklarini xususiylashtirish hamda xorijiy investorlar uchun bozordagi imkoniyatlarning kengayishi bilan uzviy bog'liq. Shu bilan birga, 2025-yilda ham davlat ulushi mavjud banklarning 67 foizlik ulushi saqlanib qolishi moliyaviy resurslar taqsimotida davlat sektori dominatsiyasi davom etayotganini anglatadi va

⁵ Muallif tomonidan Markaziy Bank ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

xususiy sektor manfaatlarini to'liq ro'yobga chiqarish uchun islohotlarni chuqurlashtirish zarurligini ko'rsatadi (1-rasm).



2-rasm. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining muammoli kreditlar hajmi (NPL), trln so'mda (2020-2025)⁶

Grafikdagi ma'lumotlar 2020–2025-yillarda O'zbekiston tijorat banklarida muammoli kreditlar hajmi keskin oshganini ko'rsatadi. Davlat ulushi mavjud banklarda NPL 5,17 trln so'mdan 14,34 trln so'mgacha ko'payib, keyin 12,83 trln so'mgacha qisqargan bo'lsa, boshqa banklarda bu ko'rsatkich 0,62 trln so'mdan 5,22 trln so'mgacha o'sgan. Shu bilan birga, muammoli kreditlarning qariyb 90 foizi 2020–2022-yillarda davlat banklari hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2024–2025-yillarda ularning ulushi 67–71 foizgacha pasaygan. Bu, bir tomondan, davlat banklarida restrukturizatsiya va korporativ boshqaruvni kuchaytirish natijasida aktivlar sifati nisbatan yaxshilanayotganini, ikkinchi tomondan, xususiy va xorijiy kapital ishtirokidagi banklarda kredit portfeli tez kengayib, risk darajasi ortayotganini anglatadi. Hozirgi inflyatsion bosim, ayrim tarmoqlarda talabning sekinlashuvi va rasmiylashtirilmagan biznes ulushining yuqoriligi sharoitida NPLning bunday dinamikasi kredit siyosatini yanada ehtiyotkor yuritish, garov siyosatini takomillashtirish hamda muammoli aktivlarni boshqarish bo'yicha maxsus "bad bank" va ikkilamchi bozor mexanizmlarini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi (2-rasm).

Yuqoridagi grafiklardagi statistik tahlillar O'zbekiston bank tizimida so'nggi yillarda ikki tomonga yo'nalgan jarayon kechayotganini ko'rsatadi: bir tomondan, aktivlar hajmi va kreditlash ko'lami barqaror o'smoqda, ikkinchi tomondan, strukturaviy xavflar to'liq bartaraf etilgani yo'q. Sof kredit qo'yilmalari ulushining yuqoriligi real sektorni qo'llab-quvvatlash kuchayganidan dalolat beradi, ammo investitsion qog'ozlar va bozor orqali moliyalashtirishning nisbatan pastligi kapital bozorining hali sayozligini anglatadi. Davlat ulushi mavjud banklar aktivlari mutlaq miqdorda o'sishda davom etayotgan bo'lsa-da, ularning ulushi pasayib, xususiy va xorijiy kapital ishtirokidagi banklar segmenti tez

⁶ Muallif tomonidan Markaziy Bank ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

kengaymoqda; bu raqobatni kuchaytirib, xizmatlar sifati va mahsulotlar diversifikatsiyasini oshirish uchun ijobiy omil hisoblanadi. Shu bilan birga, NPL hajmining ortishi va muammoli kreditlarning katta qismi hanuz davlat banklari zimmasida qolayotgani korporativ boshqaruv, kredit riskini baholash va garov siyosatini chuqur isloh qilish zarurligini ko'rsatadi. Inflyatsiya bosimi, ayrim tarmoqlarda talabning sekin tiklanishi va norasmiy iqtisodiyot ulushi yuqori sharoitida banklar ehtiyotkor kredit siyosatini davom ettirishi, aktivlarni restrukturizatsiya qilish hamda muammoli kreditlar bozorini institutsional rivojlantirish muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sindarov, F.Q. (2024) 'O'zbekiston bank sektoridagi tizimli muammolar va islohotlar samaradorligi', "Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil" ilmiy elektron jurnali, XI son, Noyabr, 2024, 297-305 -betlar.

2. Soatov, F.K. (2024) Bank aktivlari va passivlari o'rtasidagi munosabatning bank daromadliligiga ta'siri. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, X son, 205–216-betlar.

3. Qalandarov, A.B. (2020) Banklardagi muammoli kreditlarni boshqarishning dolzarb masalalari. Ilm-fan va innovatsion rivojlanish, №6, 18–25-betlar.

4. Sabirova, L.B. (2025) Tijorat banklari kredit portfelining tahlili. Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali, 5(5), 117–130-betlar.

5. Adilov, M.M. (2024) Tijorat banklari kredit portfeli samaradorligini oshirishda kredit siyosatining o'рни va ahamiyati. Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali, 4(7), 38–45-betlar.

O'ZBEKISTONDA MOLIYA BOZORINI ESG TAMOYILLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH: MUAMMOLAR VA AMALIY YECHIMLAR

Z.A.Shamansurova

TDIU, "Moliya va moliyaviy texnologiyalar" kafedrası DSc, professori

So'nggi yillarda global moliya tizimida barqaror rivojlanish konsepsiyasi ustuvor ahamiyat kasb etib, moliya bozorlarida yangi yondashuvlar shakllanmoqda. Ushbu jarayonda ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari — atrof-muhitga mas'uliyat, ijtimoiy barqarorlik va samarali korporativ boshqaruvni o'zida mujassam etgan mezonlar majmui sifatida — investitsiya va moliyaviy qarorlar qabul qilishda muhim omilga aylanmoqda.⁷ ESG yondashuvi moliyaviy natijalarni faqat daromadlilik nuqtai nazaridan emas, balki uzoq muddatli barqarorlik, risklarni boshqarish va ijtimoiy mas'uliyat bilan uyg'un holda baholashni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston – 2030" strategiyasida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, moliya bozorini rivojlantirish va xalqaro

⁷ World Bank, ESG and Sustainable Finance in Emerging Markets. – Washington, 2022